



O‘TKIR HOSHIMOV REALIZMIDA “NUR BORKI, SOYA BOR” FENOMENI

Nekmurodova Zebiniso Zafarovna

nekmurodovazebiniso@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asaridagi jamiyat va inson qalbi o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, yozuvchining ramziy timsollari va obrazlari tahlili adabiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi. Maqolada, shuningdek, romandagi ona, sevgi, insoniy qadriyatlar kabi mavzular ramziy va psixologik jihatdan o‘rganiladi. O‘tkir Hoshimovning badiiy uslubi, obrazlar yaratishdagi mahorati va ijtimoiy masalalarga qarshi kurashishdagi jasorati ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *haqiqatgo‘ylik, insonparvarlik, fleyton, ona, yozuvchi, befarqlik, adolat, jasurlik, pul.*

O‘zbek adabiyotida ismi kabi qalami ham “o‘tkir” bo‘lgan yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov, o‘zining adolatparvar asarlari bilan barchamizni qalbimizdan chuqur joy egallagan. Yozuvchining shunday ruhda yozilgan asarlaridan biri bu, uning ilk romani bo‘lmish “Nur borki, soya bor” romanidir. Atoqli yozuvchi bu asarni yozishni ancha vaqt o‘ylab yurgan va keyin uni yozishga qo‘l urgan. Shu sababdan uning tugallanishiga ham ikki yil vaqt ketgan. Asarni o‘qib bo‘lgach, adibning jasoratiga yana bir bor tan bimar iloj yo‘q. Chunki urushdan keyingi davrda, haqiqatni ochiq-oydin qog‘ozga tushirib, uni ommaga taqdim etish jasorati hammaning ham qo‘lidan kelmaydigan bir paytda adib bu romanni yozdi.



Jamiyatdagi nohaqliklar, befarqliklar va adolatsizliklar, tanish-bilishchilik eng cho‘qqiga chiqayotgan bir paytda, haqiqiy yozuvchi bir chekkada jim tura olmaydi, shu sababdan bu roman yaratilgan.

Asardagi bosh qahramon, ya’ni Sherzod, adibning ayni o‘zi degan taxminlar bor. A.Rasulovning fikri ham ayni shunday ham shunday ekan. “Sherzod ko‘p jihatdan O‘tkir Hoshimovning o‘zi edi: gazetada ishlaydi, xizmat safariga bot-bot chiqib turadi, yuragi xasta”¹, va yana shu kabi bir necha o‘xshash jihatlarni aytib o‘tadi A.Rasulov. Bu uning xarakterida ham ko‘ringan, chunki yozuvchi asar yozar ekan, hayotdagi haqiqatni yozadi.

Asardagi e’tiborga molik yana bir jihat shundaki, yozuvchi qaysi personajni tasvirlasa, o‘quvchi ham o‘zini uning o‘rnida ko‘radi. Bu shundan dalolat beradiki, yozuvchi har bir obrazga o‘zini qo‘yib ko‘rib, undan ta’sirlansagina keyin qog‘ozga tushirgan.

O‘tkir Hoshimovning deyarli barcha asarlarida ona obrazi alohida o‘rin egallab kelgan. Xuddi shu jihat mazkur romanda ham ko‘zga tashlanadi. Hamma singari Sherzod ham, eng avvalo, topgan tutganini onasi va oilasi bilan bo‘lishardi. Oilasini o‘zidan ko‘proq o‘ylagani uchun o‘zining orzularini onasi va singlisidan keyinga qo‘yardi. Bunga isbot asarning so‘nglarida ko‘rinadi:

“-Sizga mototsikl yarashmaydi, mashina oling! - dedi Sirojiddin soyaga o‘tarkan.

U chindan ham mashina sotib olishni orzu qilar, lekin har safar to‘plamlariga pul olganda kattaroq ulushini ayasiga jo‘natar, qolganini o‘rtoqlari bilan o‘tirishlarga sarflab yuborar edi.”²

¹ Rasulov A. Badiiy bezavol yangilik - Toshkent, “Sharq”.2007.B 286-287.

² O‘.Hoshimov Nur borki, soya bor - Toshkent, “O‘qituvchi”.2018.B 252.



Asardagi navbatdagi ona obrazi, bu Abduvohidning onasi. Ular yaqin do'st bo'lganlari va birga o'qiganlari uchun Sherzod tez-tez Abduvohidnikiga kelib turar, uning onasini ham oyim der edi. Qachonki qishloqdan narsa olib kelsa ham, albatta ularnikiga kirib, oyisini ziyorat qilmay ketmas edi. O'.Hoshimov asarlarida onalarni har qanday holatda ham e'zozlash va eslashni yozgani bois, ko'pchilikning qalbidan joy egallagan.

Asardagi sevgi-muhabbat mavzusi ham alohida bir ko'lamda. Sherzod dunyoni yaxshi tanigan, ustiga ustak yozuvchi bo'lgani boisdanmi, o'ziga o'xshash insonlarnigina yoqtirardi va ular bilan suhbat qurardi. Misol uchun, Shoiraga e'tibor qaratadigan bo'lsak. U Sherzodga qancha noz-u karashmalar qilib, ayollarcha makrini ishga solganda ham Sherzod unga e'tibor qarata olmadi. U qadriyatlarni qadrlaydigan, chegaralarni biladigan inson. O'zining qadriyatlariga mos keladigan qizni uchratganda, u mening taqdirim deb o'yladi, ammo qizning qadriyatlari va qarashlari mutlaqo boshqacha edi. Farida oilasini, ota-onasini birinchi o'ringa qo'ydi va ular ayrilishdi. Biroq taqdir taqozosi bilan Sherzod yana orzusidagi qizni uchratdi. Zuhra va otasining kasbi, dunyoqarashlari bir-biriga ko'proq mos tushgani uchun Sherzod va Zuhra asar so'nggida birga bo'lishadi degan taxmin yo'q emas.

Zuhraning dadasini va Sherzodning ko'zlagan maqsadlari bir edi. Ular ikkisi ham jamiyatdagi adolatsiz tuzumni va tanish-bilishchilik masalalarini yo'q qilish yo'lida birlashgandi. Sherzod Zuhrani uchratgani ham bejiz emas. U qachonlardan beri yozishni o'ylab yurgan felyetoniga arzirli sabab keltirishi va dalillar topishi kerak edi. Baxtiga unga Sulaymon Rustamovich yo'liqdi. Sulaymon Rustamovich va uning jamoasi Sherzod o'ylagan narsani allaqachonlar boshlab yuborishgan edi:

“-Siz aytgan Sayfi Soqiyev shunaqa tullak odamki, uni qarmoq bilan ilintirolmaysiz... Ziyoni yo'q. Hozircha pitillayversin. Allaqachon to'rga tushgan. Kattakon to'rga tushgan. -Yana bir -ikki hafta sabr qiling, - dedi u jilmayib.-Sizga hamma materiallarni beramiz. Shunaqa qilib yozingki, boya o'zingiz aytgan



imonsiz odamlar kimga sig'inishini bilmay qolsin. Na zardan-u, na zo'rdan madad topolmasin!"³

Shunday voqealardan paytavasiga qurt tushgan Sayfi Soqiyev ko'nglidan xotirjamligi, uyidan fayz-barokat arib, nima qilarini bilmay yuradi. Uning yakka-yu yagona o'g'li Sirojiddin ham bundan xabar topadi, albatta. "Yaxshilik yo'li" bilan hamma joyda ishini bitirib o'rgangan Sirojiddin Sherzodga pul, mashina taklif qiladi. Biroq u Sherzoddan nasibasiga yarashasini oladi va so'ngra qing'ir yo'l bilan Sherzoddan qutulmoqchi bo'ladi va afsuski, bu ishda jabridiyyda Abduvohid bo'lib qoladi. Shu voqeadan keyin u go'yoki "o'ziga choh qazidi". Chunki qo'rqqoq oldin musht ko'tarar yoki kasalini yashirsang isitmasi oshkor qiladi deganlariday u ,avvalo, o'zi, keyin otasi Sayfi Soqiyevga , o'zi bilmagan holda, hukm o'qidi.

Asardagi ona, muhabbat va insoniy qadriyatlar timsollari romanning axloqiy-estetik mazmunini chuqurlashtiradi. Hozirgi zamon ijtimoiy hayotida ham Sayfi Soqiyev yoki "qishloq raisi" kabi mansab va boylikni suiiste'mol qiluvchi shaxslar uchrab turadi hamda "yo zaring bo'lsin, yo zo'ring" mazmunidagi qarashlar ayrim muhitlarda hanuz saqlanib qolmoqda. Bunday holatlar jamiyatning sog'lom rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, Sherzod timsolida gavdalangan halollik, mardlik va haqiqatparastlik kabi fazilatlar bugungi kun uchun ham zarur ijtimoiy-axloqiy mezon sifatida e'tirof etiladi. Jamiyatda bunday fazilatlarga ega shaxslar mavjudligi va ularning faol pozitsiyasi ijtimoiy adolatni ta'minlash jarayonida muhim omil bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'.Hoshimov Nur borki, soya bor - Toshkent, "O'qituvchi" .2018.
2. Tafakkur ziyosi 60 tom- Buxoro, "Durdona" . 2022.
3. <http://bookmark.uz/nur-borki-soya-bor/>
4. Internet manbalari.

³ O'.Hoshimov Nur borki, soya bor - Toshkent, "O'qituvchi" .2018.B 241